Qatiq mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetkazib berish bo‘yicha texnik topshirig’i

Xarid predmeti:

- **Kefir** (yog' miqdori 1–2%), 500 g hajmda, 0,5 litrli polietilen butilkada.

1. UMUMIY TEXNIK TALABLAR

1.1. Fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlar:

Ko‘rsatkich nomi	Xarakteristikasi
Ta’m va hid	Toza, nordon sutga xos, begona ta’m va hidlarsiz. Ta’mi biroz o‘tkir, achitqi ta’mi bo‘lishi mumkin.
Rangi	Sutimsi oq, butun massa bo‘yicha bir xil.
Tuzilma va tashqi ko‘rinish	Bir xil, buzilmagan quyultirish holatida. Zamburug‘ mikroflorasi ta’sirida gaz hosil bo‘lishi mumkin.
Yog‘ miqdori (%)	Kamida 1% – 2% oralig‘ida

1.2. Mahsulot toifasi:

- Mahsulot birinchi toifali bo‘lishi kerak.
- Mahsulot sifati **O’z DSt 3059:2016** va sifat sertifikatiga mos bo‘lishi kerak.

1.3. Mahsulot tarkibi bo‘yicha talablar:

- Qoramolning butun (to‘liq) xom sutidan foydalaniladi (mavjud texnik va normativ hujjatlarga muvofiq).
- Kefirli zamburug‘ asosidagi kefirli achitqi.
- Ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyo xavfsizlik ko‘rsatkichlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

1.4. Markirovka (yorliq) talablari:

Har bir butilkada quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

- Mahsulot nomi.
- Toza og‘irligi va umumiy og‘irligi (g yoki kg).
- Mahsulot tarkibi.
- Ishlab chiqarilgan sana.
- Yaroqlilik muddati.
- Saqlash shartlari.
- Ishlab chiqarilgan va qadoqlangan sanalar: soat, kun, oy ko‘rinishida yozilishi kerak (tez buziluvchi mahsulotlar uchun).
- Ishlab chiqaruvchining nomi va pochta manzili.

1.5. Qadoqlash talablari:

- Qadoqlash mahsulotning butun yaroqlilik muddati davomida uning iste’mol xossalarini saqlashini ta’minlashi lozim.

1.6. Tashish va saqlash:

- Mahsulot manbai, xavfsizligi, saqlash shartlari va yaroqlilik muddati ko‘rsatilgan hujjatlar bilan birga yetkaziladi.
- Mahsulotni maxsus transport vositalarida, buziluvchan mahsulotlarni tashish qoidalariga muvofiq tashish zarur.
- Saqlash harorati: **(4 ± 2)°C** bo‘lishi lozim.

2. YETKAZIB BERISH MUDDATLARI VA SHARTLARI:

2.1. Yetkazib berish:

- Xaridorning yozma buyurtmalariga asosan, to‘lovning bir qismi ishlab chiqaruvchining hisob raqamiga tushgach, har kuni partiyalarda amalga oshiriladi.

2.2. Tovarni topshirish:

- Buyurtmachining omborigacha yetkaziladi.
- Hamroh hujjatlar: tovar yuk xati va hisob-faktura (ishlab chiqaruvchi/pastavchik tomonidan rasmiylashtirilgan bo‘lishi shart).

2.3. Sifat nazorati:

- Buyurtmachi mahsulotdan tasodifiy namunalarni sifat ekspertizasiga topshirish huquqiga ega.
- Sifatsiz mahsulot aniqlanganda, yetkazib beruvchi uni sifatlisiga almashtirishi shart.
- Takroriy buzilishlar aniqlanganda, buyurtmachi shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

2.4. Yetkazib berish sharti:

- **Buyurtmachining omboriga yetkazib berish — ishlab chiqaruvchi/pastavchi kuchi bilan.**

3. TO‘LOV SHARTLARI:

- Mahsulot narxi shartnoma muddati davomida o‘zgarmas bo‘lishi kerak (QQS bilan yoki QQSsiz — yetkazib beruvchining soliq maqomiga qarab).
- To‘lov milliy valyutada (so‘mda), bank orqali amalga oshiriladi.

To‘lov tartibi:

- **15% oldindan to‘lov** — shartnoma imzolangandan keyin 10 bank ish kuni ichida.
- Oldindan to‘lov miqdoridagi mahsulot partiyasi yetkazilgandan so‘ng, qolgan **85% to‘lov** har bir partiyani qabul qilib olinganidan so‘ng, ishlab chiqaruvchining hisob-fakturasi asosida 10 bank kuni ichida amalga oshiriladi.

Ta’minot bo’limining boshlig’i **Saidvaqqosov N. Z.**

Kelidshilgan:

Mehnat muhofazasi va ekologiya bo‘limi rahbari **Yadiyarov A. E.**